



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

**AGRAR SOHANING BARQAROR RIVOJLANISHIDA MEVA-SABZAVOTCHILIK
KLASTERLARI: TUZILMA, YO‘NALISHLAR VA ASOSIY TAMOYILLAR.**

**КЛАСТЕРЫ ПО ВЫРАЩИВАНИЮ ФРУКТОВ И ОВОЩЕЙ В РАМКАХ
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО СЕКТОРА:
СТРУКТУРА, НАПРАВЛЕНИЯ И ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ.**

**FRUIT AND VEGETABLE GROWING CLUSTERS IN THE SUSTAINABLE
DEVELOPMENT OF THE AGRICULTURAL SECTOR: STRUCTURE, DIRECTIONS
AND BASIC PRINCIPLES.**

Mannopova Muazzamxon Sultonbekovna, Farg‘ona davlat universietii
Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedراسи dotsenti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonning agrar sohasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga asos bo‘ladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ularning eksporti Shu bilan birga, meva-sabzavotchilik klasterlarning tuzilmasi, ular faoliyati ixtisoslashuvi va klasterlar faoliyatining asosiy tamoyillari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: agrar soha, qishloq xo‘jaligi, import, tashqi savdo, meva-sabzavot, klaster, ixtisoslashuv.

В статье рассматриваются объемы сельскохозяйственной продукции и ее экспорт, являющиеся основой для развития сельского хозяйства в аграрном секторе Узбекистана. Кроме того, рассматривается структура плодовоощных кластеров, специализация их деятельности и основные принципы их деятельности.

Ключевые слова: аграрный сектор, сельское хозяйство, импорт, внешняя торговля, фрукты и овощи, кластер, специализация.

The article covers the volume of agricultural products and their exports, which form the basis for the development of agriculture in the agricultural sector of Uzbekistan. At the same time, the structure of fruit and vegetable clusters, the specialization of their activities, and the main principles of cluster activity are highlighted.

Keywords: agricultural sector, agriculture, import, foreign trade, fruit and vegetable, cluster, specialization.

Milliy iqtisodiyotimizda agrar sohada ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirish, meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar jadal suratlarda amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, agrar sohada hosildorlik va mehnat unumdorligini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi qabul qilinib, ushbu hujjat qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda dastur amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Asosan, 2025 yilgacha mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini 100 milliard dollar, yillik eksportni 30 milliard dollarga etkazish maqsad qilinib, bu ko‘rsatkichlarga erishish uchun qishloq xo‘jaligi sohasida ham juda katta rezerv va imkoniyatlar mavjudligi ko‘rsatilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga asos bo‘ladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘yicha eksportni tizimli tashkil qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar jadal sur‘atlarda amalga oshirildi.

Yuqoridagi ishlarning samarali tashkil etilishi natijasida 2024 yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 444 586,4 mlrd so‘mni yoki 2023 yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 218 824,1 mlrd so‘mni (102,2

%), chorvachilik mahsulotlari – 225 762,3 mlrd so‘mni (104,0 %) tashkil qildi. Hududlar kesimida olinganda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (55225,4 mlrd so‘m), Andijon (44 374,9 mlrd so‘m), Qashqadaryo (42 693,2 mlrd so‘m), va Farg‘ona (42 666,4 mlrd so‘m) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (14517,1 mlrd so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (16 687,0 mlrd so‘m) va Navoiy viloyatini (20 206,4 mlrd so‘m) keltirib o‘tish mumkin. Yuqori o‘shish sur‘atlari Farg‘ona (104,8 %), Navoiy (104,6 %), Namangan (104,3 %) va Qashqadaryo (104,2 %) viloyatlarida qayd etildi. Jizzax (101,1 %), Sirdaryo (101,4 %) va Toshkent (101,6 %) viloyatlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 29,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 7,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda. 2024 yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko‘ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona viloyatida (41,0 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (72,2 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Toshkent viloyatida (18,6 %) qayd etildi. Shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda so‘nggi 5 yil ichida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,5 foizga o‘tdi, 5 yilda qishloq xo‘jaligining yalpi mahsulotining o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 103,5 foizni tashkil etdi.

Ayniqsa, O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi sohasi mintaqada yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda: ya’ni, qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi O‘zbekistonda 35,1 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, Qozog‘istonda 17,3 mlrd. AQSH dollari, Tojikiston 6,8 mlrd. AQSH dollari va Qirg‘iziston 4,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, O‘zbekistonda mahsulot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlaridan yuqori bo‘lib, bu uning ko‘lami va strategik ahamiyatini aks ettiradi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan bir kishiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat dunyodagi o‘rtacha darajadan 4,4 baravar yuqori bo‘lib, bunda ushbu ko‘rsatkich 17602,1 AQSH dollarini tashkil etdi.

Qolaversa, dunyodagi qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan bir kishiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat dunyodagi o‘rtacha daraja 4012 AQSH dollariga teng bo‘lgan, bu esa O‘zbekistonda agrar sektorning samaradorligi va uning unumdorligi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mamlakatimiz aholisining faol o‘shishiga qaramay, aholi jon boshiga nisbatan qishloq xo‘jaligining asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish barqaror oshib bormoqda: don ekinlari — 238,2 kilogramm (5 yil ichida +7,6 foiz), kartoshka — 100,0 kilogramm (+8,7 foiz), sabzavotlar — 322,7 kilogramm (+6,1 foiz), meva va rezavorlar — 88,0 kilogramm (+7,4 foiz), uzum — 49,1 kilogramm (+2,9 foiz), poliz ekinlari — 72,2 kilogramm (+17,2 foiz), go‘sh t — 79,2 kilogramm (+7,5 foiz), sut — 334,8 kilogramm (+4,9 foiz), tuxum — 236,9 dona (+2,4 foiz) dan iborat bo‘ldi. Mutaxassislarining qayd etishicha, bu ko‘rsatkichlarning o‘shishi soha jadal rivojlanayotgani va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha erishilayotgan muvaffaqiyatdan dalolat beradi.

Shuningdek aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda meva-sabzavotchilik mahsulotlari asosiy o‘rin tutadi. 2025 yilda O‘zbekiston bo‘yicha meva va sabzavotlar ishlab chiqarilishi jami 12,5 million tonnadan ortiqni tashkil etdi. Bunda sabzavotlar 9.9 mln tonna, mevalar va rezavorlar 2.6 mln tonnani tashkil etdi. 2025 yilda O‘zbekiston meva-sabzavotlarni eksport qilgan umumiy hajmi 2.2 million tonna bo‘lib, qiymati 2.1 mlrd USD ga yetdi. Bu 2024 ga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Eksport tarkibida meva va rezavorlar- 628,5 ming tonna, sabzavotlar- 582,5 ming tonna, tarvuz-qovun- 233,6 ming tonna, mosh va yong‘oqlar ham mavjud bo‘ldi. 2025 eksportning umumiy eksportdagi ulushi O‘zbekiston eksportidagi jami daromadning 6,3% ni tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2025 yil 8 oktyabrdagi farmoniga muvofiq, issiqxona xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish va eksport hajmini ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilandi. Farmonga ko‘ra, 2025–2027 yillarda meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini jadal rivojlantirish hamda qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish maqsad qilingan. Bunda asosiy ko‘rsatkichlarning 2026 yilda eksport hajmining 3,5 mlrd dollarga, 2027 yilda esa 4 mlrd dollarga yetkazilishi; tabiiy gaz bilan ta’minlangan issiqxonalarda mahsulot yetishtirish hajmi 2026

yilda 620 ming tonna, 2027 yilda 670 ming tonna bo‘lishi; issiqxona mahsulotlari eksporti ulushi 30 foizdan 70 foizgacha oshirilishi; 2026 yilda 20 ming gektar, 2027 yilda 15 ming gektar maydonga meva va sabzavot ko‘chatlari ekilishi asosiy vazifa qilib belgilab qo‘yilgan.

Ushbu vazifalardan tashqari quyidagi imtiyozlarning berilishi belgilangan bo‘lib, asosan 2026 yil 1 yanvardan 2028 yil yakunigacha ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilanadi; 2025 yil 1 oktyabr holatigacha bo‘lgan soliq qarzlari foizsiz 2028 yil oxirigacha uzaytiriladi; ma‘muriy va moliyaviy jarimalar hamda hisoblangan penyalar bekor qilinadi; inkasso topshiriqnomalari qaytarib olinadi; issiqxona yerlari uchun soliq qishloq xo‘jaligi yerlari stavkalari bo‘yicha hisoblanadi; yer fondi toifasini o‘zgartirmasdan issiqxona infratuzilmasi obyektlarini qurishga ruxsat beriladi (qozonxona, qadoqlash sexi va boshqalar). Shuningdek, meva-sabzavotchilik sohasini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash tadbirlari ham belgilab qo‘yilgan. Bunda, issiqlik va sovitish xizmatlari uchun xarajatlarning 50 foizi miqdorida imtiyozli kreditlar (yillik 14%) ajratiladi; Energiya samaradorligi uskunalari o‘rnatish xarajatlarning 20 foizi davlat jamg‘armasi hisobidan qoplab beriladi.

Agrar sohaning barqarorligini ta‘minlashda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlararo va hududiy integratsiyalashgan tuzilmalaridan biri agroklastlar hisoblanadi. Mamlakatimizda bu tarmoqni yanada rivojlantirish va shakllantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Bugungi kunda klasterlarning rivojlanishi barqaror innovatsion rivojlanishga va mintaqadagi qishloq xo‘jaligining raqobatbardoshligini, shuningdek, umuman agrosanoat majmuasini rivojlantirishga yordam beradigan muhim vositalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda meva-sabzavotchilikni jadal va innovatsion rivojlantirish uchun meva-sabzavot klasterlarini ikkita yo‘nalishda shakllantirish joriy etilmoqda:

Birinchi yo‘nalish – meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishdan to‘ sotishga qadar bo‘lgan belgilangan jarayonni mustaqil ravishda amalga oshiruvchi yagona yoki o‘zaro bog‘liq korxonalar guruhi doirasida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish klasteri.

Ikkinchi yo‘nalish – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga qishloq xo‘jaligi ishlarini tashkil qilish uchun ekish materiallari, avans to‘lovlarini taqdim etuvchi va ulardan ishlab chiqarilgan mahsulotni kelishilgan narxlarda sotib oluvchi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilar, tayyorlovchi korxonalar, qayta ishlovchilar, eksport qiluvchilar o‘rtasida kafolatlangan shartnomalar asosida “urug‘ – ko‘chat – mahsulot yetishtirish – tayyorlash – saqlash – qayta ishlash – tashish – bozorga yetkazish” tamoyili bo‘yicha uzluksiz zanjirni shakllantiradigan meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish klasteridan iboratdir.

Meva-sabzavotchilik klasterlari quyidagi vazifalarni o‘zida mujassamlashtiradi:

- meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotishga chuqur ixtisoslashishi;

- meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qabul qilish, tozalash, saralash, quritish hamda qayta ishlashda yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etishi;

- yer maydonlaridan foydalanish: ajratilgan yer maydonlaridan samarali va unumli foydalanish, maydonlarga sifatli, jahon andozalariga mos eksportbop meva, uzum va sabzavot ekinlarini joylashtirish, samarasiz va istiqbolsiz qishloq xo‘jalik ekinlari o‘rniga bosqichma-bosqich meva, uzum va sabzavot ekinlarini joylashtirishi;

- meva-sabzavot yetishtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, ulardan mintaq va hududiy sharoitlarda keng foydalanish, meva-sabzavotchilik sohasiga xorijiy mutaxassislarini jalb qilishi;

- eksportga yo‘naltirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularning seleksiyasi va urug‘chiligini klaster hududlarida o‘zlashtirish, rivojlantirish, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi;

- serhosil meva, uzum va sabzavot ekinlarini ekish, mahsulot yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonini to‘liq qamrab oluvchi tizimni shakllantirish, shuningdek zamonaviy innovatsion, resurs tejamkor texnologiyalarni meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish jarayonlariga joriy qilishi;

- malakali yangi ish o‘rinlarini tashkil etish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etish Qishloq xo‘jaligi vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organi hamda tashabbuskor o‘rtasida uch tomonlama kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi. Quyidagilar klasterning muassislari bo‘lishi mumkin: xorijiy va mahalliy investorlar; barqaror xo‘jalik aloqalariga va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalariga ega bo‘lgan meva-sabzavot mahsulotlari va uzumni tayyorlash, saqlash, tashish va qayta ishlash korxonalari; klasterlar tashkil etishda qatnashishi qonunlarda taqiqlanmagan boshqa yuridik shaxslardan tashkil topadi.

Meva-sabzavotchilik klasteri uning qatnashchilari tomonidan ixtiyoriy tartibda tashkil etiladi. Meva-sabzavotchilik klasterini ta‘sis etishda uning muassislari o‘z mustaqilligini saqlab qoladi. Meva-sabzavotchilik klasteri tijorat tashkilotlari hisoblanadi va qonunda nazarda tutilgan har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda, shu jumladan xorijiy investor bilan qo‘shma korxonalar shaklida ham tashkil etilishi mumkin. Meva-sabzavotchilik klasteri tarkibida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, tashish, tayyorlash, ularning marketingini olib borish, ilmiy ta‘minot va boshqalar bo‘yicha bo‘linmalar tashkil etilishi mumkin. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari meva-sabzavotchilik klasterining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashishga haqli emasligi asosiy xususiyatlardan biridir.

Meva-sabzavotchilik klasterini shakllantirish va faoliyatini tashkil etish quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

- meva-sabzavotchilik klasteri xorijiy investorlar yoki mahalliy tadbirkorlar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etiladi. Bunda muassislar tarkibiga barqaror xo‘jalik aloqalariga va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalariga ega bo‘lgan, shuningdek yaqin atrofdagi hududda joylashgan meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, qadoqlash, tashish, sotish korxonalari, ilmiy markazlar kirishi mumkin.

- qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining meva-sabzavotchilik klasteri bilan o‘zaro munosabatlari ularning o‘rtasida tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi va shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlari tartibga solinadi.

- shu jumladan, yetkazib beriladigan mahsulotning kamida 40 foizi avans bilan ta‘minlanishi hamda keyinchalik mahsulotlarning kafolatli ravishda xarid qilinishi belgilanadi.

- shartnomadan ortiqcha yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan erkin tasarruf etiladi, shu jumladan qo‘shimcha kelishuvga ko‘ra meva-sabzavotchilik klasteriga sotilishi mumkin bo‘ladi.

Meva-sabzavotchilik klasteri tarmoq ixtisosligi bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etiladi:

1. Bog‘dorchilik – intensiv bog‘dorchilik va tomchilatib sug‘orish texnologiyasini qo‘llash asosida, shuningdek meva, yong‘oq, sitrus va ko‘p yillik mahsulot yetishtirishga ixtisoslashgan;

2. Uzumchilik – tomchilatib sug‘orish texnologiyasini qo‘llagan holda intensiv asosda xo‘raki va/yoki sanoatbop uzum mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan;

3. Sabzavotchilik – bir yillik sabzavot, dukkakli ekinlar, ko‘kat va respublika hududida ta‘qiqanmagan boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashgan;

4. Issiqxona – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda issiqxona komplekslaridan foydalanishga ixtisoslashgan;

5. Ko‘p tarmoqli – yuqorida sanab o‘tilganlar bo‘yicha bittadan ortiq yo‘nalishga ixtisoslashganligi asosida faoliyat olib boradi.

Meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ham alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. Shu boisdan, klasterlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiqdir:

- barcha ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta‘sir doirasini belgilash;

- klasterlar faoliyatini joriy va uzoq bo‘lgan muddatlarga rejalashtirishni amalga oshirish, barcha qatnashchilar o‘rtasidagi eng mutanosib proporsiyalarni, munosabatlarni o‘rnatish. Bunda ularning to‘la xo‘jalik va huquqiy mustaqilligi saqlanib qolishiga erishish;

- klaster tarkibiga kiruvchi bo‘linmalar va tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro hisob-kitoblarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish. Bunda ularning huquqlari poymol qilinishiga qo‘l qo‘ymaslik, aksincha ularni himoya qilish, qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rish;

• meva-sabzavotchilik sohasidagi klasterlarni rivojlanishini ta'minlash uchun o'zaro samarali taqsimot munosabatlarini o'rnatish. olingan mablag'larni taqsimlashda faqat klasterni rivojlantirish istiqbollari hisobga olish. Shu bilan birgalikda, klaster tarkibidagi iqtisodiy subyektlarning qiziqishlarini ham inobatga olish;

• meva-sabzavotchilik klasteridagi subyektlar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish. Bunda har bir tomonning qo'shadigan hissasini va rivojlanish darajasini hisobga olish kabi to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir.

Meva-sabzavotchilik klasterlarida quyidagi vazifalarni muntazam ravishda bajarib borish muhimdir:

- meva-sabzavotchilik klasterlarida yetishtirilgan mahsulotlarning tovarlilik darajasini oshirish;
- meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish va sifat talablariga muvofiq standartlashtirish hamda sertifikatlash jarayonlariga e'tibor qaratish;

- meva-sabzavotchilik klasterlarida yetishtirilgan mahsulotlarni jahon bozorlariga va iste'molchiga yetkazish uchun logistik transport tizimini keng yo'lga qo'yish;

- meva-sabzavotchilik klasterlarini boshqarishda zamonaviy menejment usullari va innovatsiyalardan foydalanishni tatbiq etish;

- meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlanishi va samaradorligini oshirish uchun, eng avvalo, xo'jalikning SWOT-tahlilini amalga oshirish lozim bo'ladi.

Yuqoridagi vazifalarni samarali hal qilish asosida meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyatini rivojlanishini ta'minlab beradi, qolaversa, mamlakatimizning oziq-ovqat xususan, meva-sabzavotchilik tarmog'ida mavjud salohiyatdan keng foydalanish asosida respublikamiz aholisini turmush farovonligini oshirishga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mannopova M. S. (2023). Meva-sabzavotchilik klasteri korxonalarini faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. *Journal of new century innovations*, 23(3), 18-24.
2. Mannopova M. S. (2024). Possibilities of clustering the fruit and vegetable sector in Uzbekistan. *World of Scientific news in Science*, 2(2), 568-577.
3. Маннопова, М. С. (2024). Преимущества деятельности плодоовощного кластера и особенности развития в Узбекистане. *world of scientific news in science*, 2(2), 557-567.